# Mavzu 8.
# Umumqo’shin jangi.

**Mashg’ulot 1. Jang to’g’risida tushuncha. Zamonaviy umumqo’shin jangining mohiyati, maqsadi va turlari.**

**Mashg’ulot 2. Askarning jang oldi va jangdagi majburiyatlari. Askarning shaxsiy quroli va ekipirovkasi.**



*Jang* — qisqa vaqt ichida chegaralangan hududda dushmanni yo‘q qilish (tor-mor etish), uning zarblarini qaytarish va boshqa taktik vazifalarni bajarish.

*Zamonaviy umumqo‘shin jangi* — unda qatnashayotgan qo‘shinlarning birlashgan kuchlari tanklar, piyodaning jangovar mashinalari (bronetrans- portyorlar), artilleriya, havo hujumi mudofaa vositalari, samolyotlar, vertolyotlar hamda boshqa texnika va qurol-aslahalarni qo‘llash bilan olib boriladi. U qat’iyatlilik, keskinlik, tez kechuvchanlik, yuqori manyovrlilik va jo‘shqinlik bilan, vaziyatning tez o‘zgaruvchanligi, ichkariga quvvatli olov ta’siri hamda jangovar vazifani bajarishning turli xil usullari qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi



*Zamonaviy jangni ko'rinishi*

***Jangning maqsadi*** **— dushmanni jonli kuchini asir olish yoki yo’q qilish, uning qurol aslaha va jangovar texnikasini qo’lga kiritish yoki yakson qilish, qarshilik ko’rsatish qobiliyatini so’ndirish. Jangning maqsadiga barcha mavjud bo’lgan qurollardan zarba berish, qo’shilma va bo’linmalarni faol jangovar xarakatlari va manyovrlari evaziga erishiladi.**



Umumqo’shin jangining asosiy turlari Mudofaa va Hujum hisoblanadi.

Mudofaa oldindan yoki jang sharoitida dushman bilan yuzma-yuz kelinganda tayyorlanishi mumkin. Mudofaa dushman qo‘llagan barcha qurollar zarbini qaytara oladigan, barqaror va faol bo‘lishi kerak.

Mudofaaning maqsadi – dushman hujumini qaytarish, unga maksimal talofat etkazish va o’z qo’shinini hujumga o’tishiga sharoit yaratish.

Mudofaaga oldindan tayorgarlik ko’rilishi, jahg vaqtida amalga oshirilishi, dushman bilan yuzma-yuz kelganda yoki bunday holat bo’lmagan vaqtda o’tilishi mumkin.

***Hujum -*** **dushmanni to’la tor mor etish, muhim ob’ektlar va rubejlar hamda ahamiyatga ega bo’lgan joylarni egallab olish maqsadida o’tkaziladi. Unga dushmanga barcha qurol aslahalardan talofat etkazish, qaxshatqich zarba, bo’linmalarni dushman mudofaasi ichkarisiga yorib kirishi, tirik kuchlarini asir olish yoki yo’q qilish, qurol aslaha va jangovartexnikasini qo’lga kiritish va muhim ob’yekt va yer uchastkalarini egallash bilan erishiladi. MO’Gr mudofaada turgan dushmanga u bilan bevosita to’qnashuvi yoki ichkaridan xarakatlanishi jarayonida o’tishi mumkin.**

Mudofaa

# MO’Grning tayanch punkti



# HUJUM


Dastlabki holat
Boshlang’ichi rubej
Vzvod kollonnasiga bo’linis..
Gurug’ kollonnasiga bo’linish
Hujumga o’tish rubeji
Havfsis rubej

# Askarning jangdagi majburiyatlari.

Har bir askar:

+guruhning, o‘z seksiyasi (tanki)ning va o‘zining jangovar vazifalarini bilishga;

+dushman tanklarining, boshqa zirhlangan mashinalar va tankka qarshi vositalarning jangovar imkoniyatlarini, ularning kuchli va zaif tomonlarini, ayniqsa, eng zaif joyini bilishga;

+istehkom inshootlarining jihozlash hajmi va jihozlash tartibini doimo kuzatib borishga, dushmanni o‘z vaqtida topib olishga va darhol bu haqda komandirga bildiruv berishga;

+hujumda qat’iyat va qo‘rqmasdan harakatlanishga, mudofaada bardam va tirishqoq bo‘lishga, dushmanni barcha usul va vositalar bilan yo‘q qilishga, jangda matonat, zukkolik ko‘rsatishga, o‘rtog‘iga yordam berishga;

+joydan, individual himoya vositalaridan va mashinaning himoya xususiyatlaridan mohirona foydalanishga; okop va pana joylarni tezda jihozlashni bilishga, niqoblanishni amalga oshirishga, to‘siq-g‘ovlardan va zaharlangan joylardan o‘ta olishga, tankka qarshi minalarni o‘rnatish va chiqarib olishni bilishga; maxsus ishlov berishni o‘tkazishni bilishga;

# Askarning ekipirovkasi

**MO'Gr egallab turgan lavozimidan kelib chiqib askarlarning ekipirovkasi turlicha bo'lishi mumkin.**

**Bronetrasportyorda (BTR) xarakat qilayotgan gurugning ekipirovkasi jangovar holatda zarur bo'lgan barcha buyum va vositalardan iborat.**

**Har bir jangchida quyidagi anjom va buyumlar bo'lishi shart: qo'l granatakari uchun sumka, magazin uchun sumka, suv uchun flyashka, kichik sapyor lopatasi (cheholda) va gas niqobi.**



# Anjomlar sumkasi



**Anjomlar sumkasida quyidagilar bo’lishi shart: umumqo’shin himoya jamlamasi, plash-palatka, kotelok, krujka, qoshiq, shxsiy gigienik vositalar, oyoq kiyimini tozalash vositalari, fonar, ish daftari, konvertlar, qo’shimcha kiyim (qishki va yozgi) quritilgan oziq-ovqat, dori-darmon. Serjantlar tarkibi uchun qo’shimcha ravishda quyidagi buyumlart, serjantlar sumkasi (uning ichida, kompas, ofitserlar lineykasi, rangli qlqmlar va flamasterlar, ishi daftar, o’chirg’ich, buklanadigan pichoq, tsirkul-o’lchagich,kurvimetr).**

# Uyga vazifa

# O’tilgan mavzuni konspekt qilish va MO’Gr  mudofaasi sxemasini chizish